

## SHARQ VA G‘ARB MADANIYATIDA MUTOLAA SOTSIOMODELINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Behzod Ernazarov**

*Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Falsafa” kafedrası  
v.b.dotsenti, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada, qadimgi Sharq va G‘arb madaniyatlarida mutolaaga bo‘lgan munosabat, matnlarni o‘qish, talqin qilish, tushunish haqidagi faylasuflarning qarashlari tahlil qilinadi. Har bir tarixiy davrdagi falsafiy g‘oyalarni keyinchalik mutolaa madaniyatiga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, qadimgi davr va o‘rta asrlar sotsiomadaniy muhitidagi mutolaaga nisbatan bo‘lgan munosabatlar komporovistik tahlil etiladi. Qolaversa, Ushbu munosabatlarning umumiy va farqli tomonlari ilmiy- nazariy xulosalarga tayangan xolda ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *mutolaa sotsiomodeli, matn, tushunish, kitob, xos madaniyat, bilish, talqin qilish, kitob, ijtimoiy funksiya.*

**Abstract:** *This article analyzes the attitude towards reading in ancient Eastern and Western cultures, the views of philosophers on reading, interpretation, and understanding of texts. The influence of philosophical ideas in each historical period on the subsequent culture of reading is studied. Also, the attitude towards reading in the sociocultural environment of antiquity and the Middle Ages is analyzed in a comparative manner. In addition, the common and different aspects of these relations are revealed based on scientific and theoretical conclusions.*

**Keywords:** *sociomodel of reading, text, understanding, book, specific culture, knowledge, interpretation, book, social function.*

### **Kirish**

Insoniyat tafakkur tarixida yozuv va o‘qishning yuzaga kelishi eng muhim hodisalardan biri bo‘lib, u madaniyat va sivilizatsiyalarni vujudga kelishiga imkon yaratdi. Bu ma’nodagi mutolaa yozuvning ikkinchi- teskari tarafi bo‘lib, u olamni, qolaversa, insonni o‘z o‘zini bilishda muhim vositaga aylandi. Shu sabab insoniyat tarixining har bir davrida mutolaaga kitobga bo‘lgan munosabat- o‘sha davrning ijtimoiy madaniy shart sharoitlaridan kelib chiqib o‘zgarib bordi. Masalan qadimgi davr jamiyatlarida mutolaa nafaqat olamni bilish, balki matinni muqaddaslashtirish vositasi sifatida ham qabul qilindi. Shu bois, ushbu davrdagi faylasuflar, mutafakkirlar muayyan matinni tushunish, uni talqin qilishda o‘ziga-xos yondashuvlarni taklif qilishadi. Kitob va kitobxonlikning inson va jamiyat hayotidagi o‘rnini belgilash muammolari barcha davr mutafakkirlarining qarashlarida aks etgan bo‘lib, ular o‘z davrlarining ijtimoiy madaniy muhitidan kelib chiqqan xolda, kitob o‘qishning turli jihatlarini keltirib o‘tadilar. O‘z navbatida ularning qarashlari o‘sha davrdagi mutolaa sotsiomodeli, aniqroq qilib aytganda, uning jamiyat xamda alohida individ hayotidagi ahamiyatini belgilaydi.

Metodologiya. Mazkur maqolada nazariy metodologik asos sifatida, xorijiy olimlardan: A.N. Vaneevning “Kitobxonlik madaniyati tarixi” N.A. Stefanovning “Mutolaa sotsiomodelining ekzistensial jihatlari” L. Gudkovning “Ziyolilik inqirozi va ommaviy mutolaa”, kabi ishlari, shuningdek, o‘zbek olimlari: A.A. Umarovning Jamiyatda mutolaa madaniyatini shakllantirish va kutubxonachilik muammolari, kabi tadqiqotlaridan foydalanilgan. Qolaversa, maqolada, analiz va sintez, retrospektiv va qiyosiy tahlil singari umum-ilmiy metodlar qo‘llanilgan.

#### Mulohaza va natijalar

Mutolaaning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqida ilk falsafiy qarashlar Qadimgi Xitoy va antik davr mutafakkirlari: (Konfutsiy, Lao Tsi, Chjuang Tzu, Sokrat, Platon, Seneka kabi faylasuflarning ta‘limotlarida o‘z ifodasini topgan. Ular mutolaani asosan ma‘naviy hayotning ajralmas jihati sifatida qabul qilishgan. Misol uchun, Qadimgi Sharq falsafasi. Xitoy donoligida shunday deyilgan: “Kimki o‘qishga mohir bo‘lsa, “to‘r va tuzoqlarni” tashlab ketmasdan ilm zavqini tatib ko‘radi”. Tafakkurga mohir bo‘lgan kishi ko‘rinadigan suratlardan yuz o‘girmasdan, qalb va ruh sirlarini ko‘radi”.

N. A. Stefanovskayaning fikriga ko‘ra, mutolaaning birinchi sotsiomodellari eng qadimgi Sharq jamiyatlari (Hindiston, Xitoy) sivilizatsiyasida yuzaga kelgan. Bunda, mazkur modellar faqat xos odamlar doirasi uchun mavjud bo‘lgan ma‘naviy o‘zini o‘zi takomillashtirishning elita muqaddas-meditativ amaliyoti sifatida shakllangan. Mutolaa amaliyoti tarqalishining boshidanoq uning asosiy ko‘nikmalari va savodxonlik darajasi mavjudligini nazarda tutadigan kundalik, utilitar mutolaaga tabaqalangan. Bu o‘rinda, ma‘naviyyuksaltiruvchi o‘qish to‘g‘ri deb hisoblangan va jamiyatning elita qatlamiga xos xususiyat bo‘lib xizmat qilgan yetakchi tendensiyalardan biri bo‘lgan.

Qadimgi Sharq faylasuflari kitob mutolaasiga o‘ziga-xos nuqtai nazardan yondashgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Konfutsiy Xitoy tarixida birinchi bo‘lib xususiy maktab ochgan. U o‘qish va yozishni, qadimiy kitoblarni, afsonalarni, G‘arbiy Chjou marosimlarini sharhlashni o‘rgatgan. Biroq, uning asosiy maqsadi shogirdlariga axloqiy me‘yorlarni, "olijanob odamning o‘zini o‘zi takomillashtirish" usullarini o‘rgatish edi.

Shuni nazardan chetda qoldirmaslik lozimki, Konfutsiylik avvalambor ijtimoiy axloqiy ta‘limot bo‘lib, unda kitob o‘qish masalalari jamiyatdagi axloqiy me‘yorlar bilan bog‘liq talqin etilgan. Misol uchun, faylasufning kitob o‘qishga bo‘lgan munosabati uning quyidagi mulohazalarida ko‘rinadi: “Bolalar oilada o‘z otasiga, onasiga, qolaversa boshqa yoshi ulug‘ qarindoshlariga hurmat ko‘rsatishlari kerak. Oiladan tashqarida boshqa- odamlar ayniqsa, yoshi katta kishilarga iltifotli bo‘lishi lozim. Agar shu burchlarini bajargandan so‘ng, kuch quvvatlari qolsa, vaqtlarini kitob o‘qishga sarflashi zarur”

Konfutsiy o‘qitishning muhimligini ta‘kidlab, ta‘lim va tafakkur o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik g‘oyasiga diqqat qaratadi. Misol uchun, faylasuf: “O‘ylamasdan o‘qish vaqtni behuda sarflashdir, “O‘ylash va o‘rganmaslik buzg‘unchidir” ya‘ni fikrlash bilan bog‘lanish zarur. O‘qigan narsasi haqida o‘ylamasdan kitob o‘qish hech qanday natija bermaydi, kitob o‘qimay o‘ylash esa faqat charchatadi, degan mulohazani keltiradi.

Bir so‘z bilan aytganda, qadimgi Xitoy falsafasida, mutolaaga munosabat shaxsning ma‘naviy o‘zini-o‘zi takomillashtirish, ijodiy rivojlanish yo‘li sifatida belgilanadi.

Qadimgi Hind madaniyatida ham mutolaaga o‘ziga-xos munosabat “Vedalar”, “Upanishadlar” kabi diniy falsafiy kitoblarda aks etadi. Shu bilan birga, barcha sohalarda bo‘lgani kabi, mutolaa qilish jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish bilan ham, bog‘liq xisoblanadi. Unga ko‘ra, “Muqaddas Vedalarni” faqat oliy tabaqa ruhoniylariga o‘qib tushunadi va ularni to‘g‘ri sharhlay oladi. Muqaddas matnlarni o‘qish hayot tashvishlaridan yiroq bo‘lgan brahmanlarga xos bo‘lib, ular borliq sirlarini, inson hayoti mohiyatini boshqa quyi tabaqa vakillariga tushuntirib berishlari lozim.

Tadqiqotchi olimlar qadimgi hind jamiyatida mutolaaning quyidagi uch ko‘rinishini ajratadilar:

1. muqaddas matnlarni o‘qish;
2. marosim qo‘shiqlarini o‘qish;
3. davlat boshqaruviga doir hujjatlarni o‘qish.

Sanab o‘tilgan ushbu turdagi mutolaa amaliyoti qadimgi Hindistonda har qanday turdagi matnlarni o‘qish faqat yuqori tabaqa vakillariga xos bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Qadimgi Xitoy va Hind jamiyatlaridan farqli ravishda, antik davr madaniyatida og‘zaki nutqning ustunligini kuzatish mumkin. Bu bir tomondan, Gomer, Geseot kabi shoirlarning ijodlari og‘zaki an‘anaga ko‘ra avloddan avlodga o‘tib kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, esa jamoaviy voqealar (mifologik-bayram sayillari yoki siyosiy-sud muhokamalari) og‘zaki usulda keng tarqalganligi bilan izohlanadi. Masalan, Samosatalik Lusian (qadimgi yunon yozuvchisi)ning "Ko‘p kitob sotib olgan johil odam" dialogida og‘zaki nutqning ma‘nosini yaxshiroq tushunish uchun ovoz chiqarib o‘qish odati haqida (asosan tinish belgilarining yo‘qligi va hatto so‘zlarning ajratilishi tufayli) va shu bilan birga kitoblar kam bo‘lganligi sababli ustun bo‘lganligini ta’kidlaydi .

Pifagor va Sokrat og‘zaki nutqni suhbat va dialog shaklida o‘tkazishni afzal ko‘rdilar. Qadimgi yunon faylasufi Sokrat hech narsa yozmagan, faqat jonli nutq fikrni to‘g‘ri ifodalashi mumkin deb hisoblagan. Bu yerda biz olim sifatida faylasufning alohida intellektual tipiga duch kelamiz. S. S. Averintsevning fikricha: «Dono» tipiga mansub mutafakkir butun umrini odamlar bilan, tabiat bilan, o‘z fikrlari bilan suhbatda o‘tkazishi mumkin, juda kamdan-kam hollarda o‘ram olib, «olim» tipiga mansub bo‘lgan intellektual mehnatkash esa kitoblar bilan muntazam aloqada bo‘lishdan qochib qutula olmadi» .

Platon bilish jarayonini og‘zaki so‘zlash, xotiralarni uyg‘otish san‘ati sifatida belgilaydi. U falsafa tarixida yozish funksiyalarini juda past baholagan, uni tilning xizmat komponenti, yordamchi yodlash usuli — gipomneziya sifatida ko‘rgan. Platon, Sokratdan farqli o‘laroq, o‘zining asosiy g‘oyalarini yozma shaklda, mashhur dialoglarda — yuksak badiiy falsafiy asarlarda aks ettirgan. Shunday qilib, u "Fedr" dialogida quyidagilarni ta’kidlaydi:

“Bilimli odamning jonli nutqi yozma ifodalansa, haqiqiy asarga aylanadi. Faqat, haqiqatni aks ettirgan logosgina yozma ifodalanganda o‘ziga-xos qiymat kasb etadi” . Zotan, Platon tovushli so‘z, intonatsiyalangan Logosning ustuvorligini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga, Platon matnlarni ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruhga haqiqatni o‘z ichiga olgan matnlar, ikkinchi guruhga esa yolg‘on va shuning uchun foydasiz va hatto odamlar uchun xavfli matnlar kiradi. Bu erda Platon bizni yolg‘onning zararli ekanligi haqidagi fikrga olib keladi, chunki "u mavjud bo‘lmagan narsa haqida go‘yo mavjud bo‘lgandek gapiradi" . Soxta matnlar, ma‘lum ma‘noda, qalbimizda paydo bo‘ladigan yolg‘on hissiyotlarni amalga oshiradi. Aynan shuning uchun ham Platon sofistlar faoliyati haqida keskin salbiy gapirdi: ikkinchisi, mazmuni hisobga olmasdan, nutq san‘atining rasmiy qoidalarini o‘rgatadi va shu bilan shaklan to‘g‘ri, lekin mazmunan noto‘g‘ri matnlarni yaratishga yordam beradi.

Yana bir antik davr faylasufi Aristotelning fikricha, nutq bevosita tafakkur g‘oyalarini yetkazadi; yozuv faqat nutqda, ovozda mavjud bo‘lgan narsalarni ifodalaydi. Xuddi Platon kabi yozma nutqda nisbatan salbiy munosabat konseptual tarzda Aristotel tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u ham og‘zaki nutqni aqlga yaqinroq deb hisoblagan. Fransuz faylasufi Derrida ta‘biri bilan aytganda, “uchun Aristotel uchun og‘zaki so‘zlar aqliy tajribaning timsoli bo‘lsa, yozma belgilar faqat og‘zaki so‘zlarning ramzidir. “Birinchi belgilar”ni hosil qiluvchi ovoz aql bilan muhim va yaqin aloqadadir... Yozma belgilovchi, Aristotelning fikricha, har doim faqat texnik va sun‘iy voqelikni aks ettiradi .

Rim faylasufi, Seneka O‘zining "Lusiliyga axloqiy maktublar" asarida kitoblarni tanlab o‘qish fazilati haqida so‘z yuritadi: “Haddan ortiq ko‘p kitob o‘qish ham inson aqlini chalg‘itadi. Agar shaxsiy kutubxonangizdagi barcha kitoblarni o‘qiy olmasangiz, o‘zingizdan aqlli odamlar muhim deb belgilagan matnlar bilan kifoyalaning. Biroq, ba‘zan men bu kitobni ham, boshqasini ham ochib ko‘rmoqchiman deb qaysarlik qilishingiz mumkin. Lekin, ko‘p taomlarni tatib ko‘rish, to‘qlik belgisi bo‘lgani kabi, haddan ziyod ovqatlanish ham oshqozonni buzadi. Xuddi shunday tanlashni bilmay ko‘p o‘qish ham, kishining aqlini chalg‘itadi” .

Seneka mutolaa qilish jarayonida kerakli mulohazalarni qayd etib borish ko‘nikmasini shakllantirishga ham urg‘u beradi. "Agar biror narsani o‘qisang, o‘qiganingdan asosiy fikrni o‘rgan. Men ham shunday qilaman: o‘qiganimdan, albatta, bir narsani qayd etaman", "Qalam bilan o‘qish orqali olingan narsa aql ko‘zguyinga o‘yib chizilgan naqshga aylanadi"

Stoiklarning g‘oyalarini targ‘ib qilgan yana bir Rim faylasufi Epiktet xisoblanadi. uning ta‘limotining asosiy ma‘nosi ezgulik tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qishning inson hayotidagi ahamiyati haqida o‘z fikriga ega edi. Agar siz kitob o‘qish yoki insonga yaxshilik qilish o‘rtasida tanlov qilsangiz, ikkinchisi ustun bo‘lishi kerak: “Kitob o‘qish amal emas, balki amalga tayyorgarlikdir. Insonga qandaydir yordam berish imkoniyati tug‘ilsa, o‘ylamasdan, hatto eng yaxshi va foydali kitobni ham o‘qishni kechiktirish kerak”. Kitob o‘qish insoning faqat o‘zi uchun bo‘lmasligi kerak, chunki u behuda narsalarni o‘zlashtirishimiz uchun emas, balki o‘qib o‘rganganlarimizni hayotda qo‘llay olish xamda yaxshi yashashni bilish uchun bo‘lishi lozim. Agar doimiy mutolaa qilsak, boshqalarning bunga to‘sqinlik qilishidan bezovta bo‘lmaymiz. Bu esa, kitob o‘qish uchun muhim sabab bo‘la oladi” .

Bir so‘z bilan aytganda, qadimgi yunon jamiyatida ijtimoiy madaniy vaziyatlar, o‘ziga xos ratsional tafakkur tarzi yozma nutqda nisbatan salbiy munosabatlarni shakllantirdi. Bu o‘z navbatida notiqlik san’atining yuksak darajada rivojlanishiga falsafiy ta’limotlarni ham og‘zaki suhbatlar tarzida olib borilishiga zamin yaratdi.

1. O‘rta asr falsafasi (xristian apologetikasi), antik davrdan farqli o‘laroq, "o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Bularni quyidagicha ifodalash mumkin:
2. Jahon dinlari xususan, xristianlik va islom dinlaridagi muqaddas kitoblarning mavjudligida
3. Kitob o‘qish matn orqali ilohiy borliq bilan muloqot qilish vositasi sifatida qabul qilinadi;
4. So‘zning “ilohiy vahiyini” tushunishning universal usuli sifatida talqin etilishida.

Xristianlik va islom dini qadriyatlariga ko‘ra, Har bir tabiat hodisasi xudoning qo‘li bilan yaratilgan va insonga o‘qish uchun berilgan matndir. Shunday qilib, muqaddas kitoblarni o‘qiyotgan odam o‘qishning o‘zidayoq ilohiy borliq bilan muloqot qiladi va unga o‘xshash mazmun kasb etadi. Xristian madaniyati Injildagi payg‘ambarlar tomonidan qayd etilgan Xudo Kalomiga sig‘inish bilan tavsiflanadi. "Hayot kitobi" g‘oyasi yozilgan imonlilarning qalbida kuylangan, Muqaddas Kitobning muqaddas matni, cherkov otalarining matnlari va va’zlarida, barcha nasroniy ta’limotiga singib ketgan. Shuning uchun germenevtika — matnlarni talqin qilish san’ati (Injil va cherkov otalari) — o‘rta asrlar madaniyatining o‘zagiga aylanadi. Xristianlikda butun dunyo, jumladan tabiat, Xudoning Kalomi bilan bog‘liq holda ikkinchi o‘rinda turadi.

O‘rta asrlarning oxiriga kelib, kitob va o‘qishga bo‘lgan munosabatning uchta asosiy yo‘nalishi paydo bo‘ldi:

1. “Muqaddaslik” tushunchasini ustun biluvchi va ilohiy matnlarni tushunishga qaratilgan mutolaa;
2. Muqaddas kitoblarni sharhlashga qaratilgan mutolaa;
3. Matinga nisbatan muqaddas munosabatning yashirin muqobili sifatidagi dunyoviy mazmundagi kitoblarning mutolaasi.

Masalan, o‘rta asr falsafasining eng yirik vakili AvgustStine e‘tiqod va aqlning uyg‘unligi haqidagi nazariyani ishlab chiqadi. U mazkur munosabatda, dinga nisbatan e‘tiqodni tan olish talabini ilgari suradi. Unga ko‘ra, konseptual-ratsional ( mantiqiy fikrlash, fan va falsafa yutuqlari) va irratsional (cherkovning "Muqaddas Yozuvi" nufuzi o‘zaro uyg‘un bo‘lgandagina haqiqat yuzaga chiqadi. Avgustinning quyidagi iqtibosida buni kuzatish mumkin: Mutolaa qilayotganimizda haqiqatni tashqi ko‘rinishdagi so‘zlardan emas, balki ana shu so‘zlar yashirgan ma’nodan izlash kerak”

Yana bir xristian apologetlaridan biri P. Abelyar xam mutolaa qilishda aql va e‘tiqodning o‘zaro qarama qarshiligiga diqqat qaratadi. Uning fikriga ko‘ra, faqat aqlning o‘zi bilan ilohiy haqiqatni bilib bo‘lmaydi. Shu bois ham xudo insonga e‘tiqod qilish uchun qalb hissiyot kabi latif narsalarni bergan. Inson bundan xulosa chiqarib, yashashi, aql yuritishi kerak .

Umuman olganda o‘rta asrlar tafakkur tarzida mutolaa qilish xudoni anglash, unga e‘tiqod qilish vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu ma’noda kitob “Xudo kalomi”ning timsoliga aylanadi, uni o‘qish yashirin, transsendental sirga kirishning o‘ziga xos ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

### **Xulosa**

Yuqorida keltirilgan mulohazalar tahlilini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, insoniyat tafakkur tarixining turli bosqichlarida mutolaaning ijtimoiy funksiyalari, turlari aniqrog‘i uning sotsiomodeli o‘zgarib borgan.

Qadimgi davr jamiyatlarida u elitar, xos tabaqalar uchun o‘ziga-xos faoliyat turi bo‘lsa, o‘rta asrlarga kelib, uning ahamiyati diniy mazmun kasb etgan. Qolaversa, turli davr va madaniyatlardagi, dunyoqarashning, ijtimoiy munosabatlarning, ma’naviyat hamda qadriyat yo‘nalishlarining o‘zgarishi mutolaaning funksiyalari, mazmuni, ko‘lamining transformatsiyalashuviga sabab bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Конфуций. Лунь Ю. Древняя китайская философия. Сборник текстов: в 2-х томах. М.: Мысль, 1972.
2. Стефановская Н. А. Экзистенциальные и коммуникативные основания чтения: теория, методология и методы социологического исследования: автореф. ... Доктор социологических наук. науки. Тамбов, 2009. 41 с.
3. Шендрик А.И. Теория культуры: учебник. руководство для университетов. М.: БИРЛИК-ДАНА, Бирлик, 2002. 519 с.
4. Лукиан. Сочинения: в 2-х томах. СПб.: Алетейя, 2001. т. 1. 2. 544 с.
5. Платон. Федон, Байрам, Федр. СПб.: Азбука, 1997. 254 с.
6. Постмодернизм. Энциклопедия / сост. и научный. ред. А. А. Грицанов, М. А. Можейко. Минск: 2001. 1040 с.
7. Сенека Луций. Нравственные письма к Луцилию. URL: <http://jourfac.narod.ru/zip/9ftSeneca.zip> (дата доступа: 07.06.2024).
8. Эпиктет. В чем наше благо? Избранные мысли римского мудреца. URL-адрес: <http://www.sky-art.com/epictet/blago/blago00.htm> (дата доступа: 19.04.2024).
9. Абеляр П. Возражение одному невежде в области диалектики // Антология мировой филологии.
10. София: в 4-х томах. М.: Мысль, 1969–1973. Том. 1. С. 794–809.
11. Веринцев С. С. Слово и книга // Поэтика ранневизантийской литературы. М.: Кода, 1997.